



THE GAP BETWEEN STATE POLICY AND PRACTICE IN THE EDUCATION OF BLIND CHILDREN IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET ERA

Zukhra Kabulova

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: blind children, special education, social adaptation, vocational training, labor education, boarding school, typhlopedagogy, Society of the Blind, social integration, Uzbek SSR.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article provides a historical analysis of the social status of blind children in Uzbekistan between 1925 and 1990, their involvement in the education system, preparation for independent living, development of labor and vocational skills, and integration into society. Based on materials from the National Archives of Uzbekistan, curricula of special boarding schools, reports of public education authorities, documents of republican seminars and meetings, and relevant scholarly literature, the article examines the transformation of attitudes toward blind children from a model of social care toward an approach based on education, vocational training, and social participation. It highlights the role of labor education, production workshops, music, sports, reading, and cultural activities in the socialization of students at boarding schools. The study also assesses the cooperation among the Society of the Blind of Uzbekistan, industrial enterprises, state educational authorities, and families as an important factor influencing the professional and social adaptation of graduates. The findings demonstrate that the effectiveness of special education was determined not merely by the number of educational institutions, but also by children's literacy, ability to move independently, acquisition of vocational skills, entry into the labor market, and capacity to participate actively in society.

SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ BOLALAR TA‘LIMIDA DAVLAT SIYOSATI VA AMALIYOT O‘RTASIDAGI TAFOVUT**Zuxra Kabulova***O‘zbekiston milliy universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojiz bolalar, maxsus ta‘lim, ijtimoiy moslashuv, kasbiy tayyorgarlik, mehnat ta‘limi, maktab-internat, tiflopedagogika, Ko‘zi ojizlar jamiyati, ijtimoiy integratsiya, O‘zbekiston SSR.

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1925–1990-yillarda O‘zbekistonda ko‘zi ojiz bolalarning ijtimoiy mavqeyi, ularni ta‘lim tizimiga jalb etish, mustaqil hayotga tayyorlash, mehnat va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda jamiyat hayotiga integratsiya qilish jarayonlari tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbekiston Milliy arxivi materiallari, maxsus maktab-internatlarning o‘quv rejalari, xalq maorifi organlari hisobotlari, respublika seminar-yig‘ilishlari hujjatlari va sohaga oid ilmiy adabiyotlar asosida ko‘zi ojiz bolalarga bo‘lgan munosabatning ijtimoiy parvarish modelidan ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy faollikka asoslangan yondashuv tomon o‘zgarishi yoritiladi. Maktab-internatlarda mehnat ta‘limi, ishlab chiqarish ustaxonalari, musiqa, sport, kitobxonlik va madaniy tadbirlarning o‘quvchilar ijtimoiylashuvidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Ko‘zi ojizlar jamiyati, ishlab chiqarish korxonalari, davlat ta‘lim organlari va oilalarning o‘zaro hamkorligi bitiruvchilarning kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta‘sir etgan muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari maxsus ta‘limning samaradorligi faqat ta‘lim muassasalari soni bilan emas, balki bolaning savodxonligi, mustaqil harakatlanishi, kasb egallashi, mehnat bozoriga kirishi va jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi bilan belgilanganini ko‘rsatadi.

РАЗРЫВ МЕЖДУ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКОЙ И ПРАКТИКОЙ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ НЕЗРЯЧИХ ДЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД**Зухра Кабулова***Национальный университет Узбекистана**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: незрячие дети, специальное образование, социальная адаптация, профессиональная подготовка, трудовое обучение, школа-интернат, тифлопедагогика, Общество слепых, социальная интеграция, Узбекская ССР.

Аннотация: В статье представлен исторический анализ социального положения незрячих детей в Узбекистане в 1925–1990 годах, их вовлечения в систему образования, подготовки к самостоятельной жизни, формирования трудовых и профессиональных навыков, а также интеграции в общественную жизнь. На основе материалов Национального архива Узбекистана, учебных планов специальных школ-интернатов, отчетов органов народного образования, документов республиканских семинаров и совещаний, а также научной литературы по данной проблематике рассматривается трансформация отношения к незрячим детям — от модели социального попечения к подходу, основанному на образовании, профессиональной подготовке и социальной активности. Раскрывается роль трудового обучения, производственных мастерских, музыки, спорта, чтения и культурных мероприятий в социализации учащихся школ-интернатов. Также оценивается взаимодействие Общества слепых Узбекистана, производственных предприятий, государственных органов образования и семей как важный фактор профессиональной и социальной адаптации выпускников. Результаты исследования показывают, что эффективность специального образования определялась не только количеством образовательных учреждений, но и уровнем грамотности детей, их способностью к самостоятельному передвижению, приобретением профессии, выходом на рынок труда и возможностью активно участвовать в жизни общества.

Kirish. Jamiyatning nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosabati uning ijtimoiy taraqqiyoti, ta’lim siyosati va inson kapitaliga bo‘lgan yondashuvini aks ettiruvchi muhim mezonlardan biridir. Ko‘zi ojiz bolalarning jamiyatdagi mavqeyi ham tarix davomida o‘zgarmas hodisa bo‘lmagan. Uzoq vaqt davomida bunday bolalarga asosan yordam, parvarish va himoyaga muhtoj shaxs sifatida qaralgan bo‘lsa, XX asr davomida ularni ta’lim olishi, kasb egallashi, mehnat qilishi va

jamiyat hayotida mustaqil ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida qabul qilish jarayoni kuchaya bordi.

O'zbekistonda ushbu jarayon 1920-yillardan boshlab davlat tomonidan maxsus ta'lim muassasalarining tashkil etilishi bilan yangi mazmun kasb etdi. Ko'zi ojiz bolalarni davlat hisobiga olish, maxsus maktab va internatlarga joylashtirish, savod o'rgatish, kundalik turmush ko'nikmalarini shakllantirish va mehnat faoliyatiga tayyorlash maxsus ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Biroq ko'zi ojiz bolaning jamiyatga moslashuvini faqat uning maktabga qabul qilinishi bilan izohlash yetarli emas. Ta'limga kirish — ijtimoiy integratsiyaning dastlabki bosqichi edi. Bolaning mustaqil harakatlanishi, o'z-o'ziga xizmat qilishi, kasb egallashi, mehnat jamoasiga kirishi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi, jamiyat bilan muloqot qilishi va maktabdan keyingi hayotini tashkil eta olishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu jihatdan 1925–1990-yillarda O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalarga nisbatan davlat va jamiyat munosabatini o'rganish maxsus ta'lim tarixining institutsional tomoninigina emas, balki uning ijtimoiy natijalarini ham ochib berishga imkon yaratadi. Mazkur maqolaning maqsadi 1925–1990-yillarda O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiy maqomi, kasbiy tayyorgarligi va jamiyatga moslashuv jarayonlarining tarixiy rivojlanishini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy manbaviy bazasini O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan sobiq O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi va Xalq maorifi vazirligi fondlariga oid hujjatlar tashkil etadi. Jumladan, F.94 fondidagi 1930-yillarga oid hujjatlar, maxsus maktab-internatlarning 1960–1962-yillardagi yillik va statistik hisobotlari, o'quv rejalari, Respublika seminar-yig'ilishlari stenogrammalari hamda maxsus maktablar faoliyati bo'yicha ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlashtirish, davrlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik qiyoslash va kontent-tahlil metodlari qo'llanildi. Rasmiy hujjatlarda ko'rsatilgan davlat siyosati bilan maktab-internatlardagi amaliy vaziyatni o'zaro solishtirishga alohida e'tibor qaratildi.

1920-yillarning boshlarida O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalar bilan ishlash hali alohida rivojlangan ta'lim tizimi shaklini olmagan edi. Ularni ro'yxatga olish, yashash joyini aniqlash, boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlash kabi masalalar umumiy ijtimoiy himoya tadbirlari doirasida amalga oshirilgan. Dastlabki bosqichning muhim xususiyati shundaki, ko'zi ojiz bola avvalo davlat parvarishiga muhtoj shaxs sifatida ko'rilgan. Uning ta'lim olishi va kelajakda mustaqil hayot kechirishi masalalari asta-sekin kun tartibiga chiqdi.

Maxsus maktablarning tashkil etilishi bu munosabatni o'zgartira boshladi. Maktab-internat bolaning kundalik hayotini tashkil etish, unga savod o'rgatish, ovqatlantirish, kiyim-kechak bilan ta'minlash, tibbiy kuzatuv olib borish va mehnat ko'nikmalarini shakllantirish vazifalarini yagona muassasa doirasida birlashtirdi. Natijada ko'zi ojiz bolaning ijtimoiy maqomi faqat oila yoki

mahalla yordamiga qaram shaxs holatidan davlat ta'lim tizimining ishtirokchisi bo'lgan o'quvchi maqomiga o'ta boshladi.

1930-yillarda davlatning savodsizlikni tugatish va umumiy boshlang'ich ta'limni kengaytirishga qaratilgan siyosati maxsus ta'limga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ko'zi ojiz bolalarni savodli qilish bilan bir qatorda, ularni keyinchalik mehnat faoliyatiga jalb etish masalasi ham muhim vazifaga aylandi. 1935-yil uchun tuzilgan hujjatlarda Toshkentdagi ko'zi ojiz bolalar maktabi 100 o'ringa mo'ljallangani, Toshkentda 40 o'rinli kasb-hunar maktabini ochish rejalashtirilgani va Samarqandda 50 o'rinli ko'zi ojiz bolalar maktabini tashkil etish nazarda tutilgani qayd etilgan.

Kasb-hunar maktabini alohida tashkil etish rejasi ko'zi ojiz bolalarning kelajagi faqat boshlang'ich savod chiqarish bilan chegaralanmasligi haqidagi qarash shakllanayotganidan dalolat beradi. Davlat siyosatida ularni muayyan hunar egasi qilish, mehnat jamoalariga jalb etish va ma'lum darajada moddiy mustaqillikka erishishiga sharoit yaratish maqsadi paydo bo'ldi. Ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiy moslashuvda maxsus maktab-internatlarning o'rni alohida bo'ldi. Internat shunchaki dars o'tiladigan maktab emas, balki bolaning kun davomida yashashi, o'qishi, tarbiyalanishi, mehnat qilishi va tengdoshlari bilan muloqot qilishi uchun tashkil etilgan kompleks muhit hisoblangan.

Bunday muhit ko'zi ojiz bolaning kundalik qaramligini kamaytirishga xizmat qilishi kerak edi. U maktabda nafaqat o'qish va yozishni, balki kiyinish, o'z buyumlarini tartibga solish, xonada va maktab hududida mustaqil harakatlanish, kun tartibiga rioya qilish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish kabi ko'nikmalarni ham egallagan. Shu sababli ko'zi ojiz bolalar ta'limining samaradorligi faqat fanlardan o'zlashtirish darajasi bilan baholanmagan. Kundalik hayotda mustaqillik, harakatlanish, muloqot qilish va turmush vazifalarini bajarish ham pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Tiflopedagogik yondashuvda ko'rish imkoniyatining cheklanganligi boshqa sezgi a'zolarining maqsadli rivojlantirilishi orqali qisman kompensatsiya qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan. Eshitish, teginish, nutq va harakat imkoniyatlarini uyg'un rivojlantirish o'quvchining atrof-muhitni idrok etishi va unda xavfsiz harakatlanishiga yordam bergan. Mustaqil harakatlanish ko'nikmalarining shakllanishi ayniqsa katta ijtimoiy ahamiyatga ega edi. Bola maktab ichida yo'nalishni aniqlashdan boshlab, zinapoya, yo'lak, hovli va keyinchalik ko'cha muhitida harakatlanishni o'rgangan. Transport tovushlarini ajratish, tayoqdan foydalanish, zarur vaziyatda yo'l so'rash va xavfni oldindan sezish kabi ko'nikmalar uning keyinchalik o'qish yoki ish joyiga mustaqil bora olishi uchun zarur bo'lgan.

Shu ma'noda jismoniy mustaqillik bilan ijtimoiy mustaqillik bir-biriga chambarchas bog'liq edi. Bilim va kasbga ega bo'lgan, biroq mustaqil harakatlana olmaydigan shaxsning mehnat va jamoat hayotida ishtirok etish imkoniyatlari tabiiy ravishda cheklangan. Ko'zi ojiz bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlash maxsus ta'limning markaziy vazifalaridan biriga aylandi. Sovet pedagogik siyosatida mehnat tarbiyasiga umumiy tarzda katta ahamiyat berilgan bo'lsa-da, ko'zi ojiz bolalar uchun uning qo'shimcha ijtimoiy ahamiyati mavjud edi. Kasbiy tayyorgarlik ularga maktabni tugatgandan keyin daromad olish, jamoaga qo'shilish va oilaga to'liq qaram bo'lib qolmaslik imkonini yaratishi kerak edi.

Maktab-internatlardagi mehnat mashg'ulotlari bosqichma-bosqich tashkil etilgan. Dastlab oddiy qo'l mehnati, buyumlarni tartibga keltirish, turli materiallar bilan ishlash va kundalik yumushlarni bajarishga o'rgatish amalga oshirilgan. Keyinchalik o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va muayyan hunarlarni egallashga qaratilgan mashg'ulotlar kengaydi.

1960-yilgi respublika hisobotlarida bolalar uylari va maxsus maktablarda ishlab chiqarish hamda mehnat ta'limini yaxshilash masalalari alohida nazorat qilingani qayd etiladi. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarining faoliyatini takomillashtirish, mavjud jihozlardan samarali foydalanish va tarbiyalanuvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash muhim vazifa bo'lgan. O'quvchilar xonalar, mebellar va ayrim jihozlarni ta'mirlash, ularni saqlash, internat xo'jaligidagi sodda yumushlarni bajarishda ham qatnashgan. Bunday ishlar o'quvchiga mehnatning real natijasini ko'rish va o'z faoliyatining jamoa uchun foydali ekanini his qilish imkonini bergan.

Biroq mehnat ta'limining imkoniyatlari barcha muassasalarda bir xil bo'lmagan. Ustaxonalar jihozlarining yetarli emasligi, o'rgatiladigan kasblar doirasining torligi va mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini bilan aloqalarning zaifligi kasbiy tayyorgarlik samaradorligini cheklagan. 1960-yilgi ma'lumotlarda ayrim o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari davr talablariga javob bermagani qayd etilgan. Qishloq xo'jaligiga oid kasblarni o'rgatish uchun tegishli yer maydoni va jihozlar bo'lmagan hududlarda bunday mashg'ulotlarni tashkil etishning imkoni bo'lmagan. Bu holat kasb tanlashda bolaning qiziqishi va qobiliyatidan ko'ra maktabning mavjud moddiy imkoniyatlari ko'proq ta'sir qilganini ko'rsatadi.

Ko'zi ojiz o'quvchining kasbiy tayyorgarligi maktabni tugatish bilan yakunlanmagan. Maktab unga dastlabki bilim va hunar ko'nikmalarini bergan bo'lsa, bitiruvchini mehnat faoliyatiga olib kirish boshqa tashkilotlarning ham ishtirokini talab qilgan. Bu jarayonda O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati alohida o'rin tutgan. Jamiyat bitiruvchilar uchun mos mehnat yo'nalishlarini aniqlash, ishlab chiqarish tashkilotlari bilan aloqa qilish va ko'zi ojiz shaxslarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda qatnashgan.

Ishlab chiqarish korxonalari esa o'quv amaliyoti, mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash va keyingi bandlik uchun muhim maydon bo'lgan. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik samaradorligi maktab, Ko'zi ojizlar jamiyati va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liq edi.

Maktabda o'rgatilgan kasb hududdagi real ish o'rinlariga mos bo'lmasa, o'quvchining olgan tayyorgarligi amaliy qiymatini yo'qotishi mumkin edi. Korxonada esa ko'zi ojiz bitiruvchiga mos xavfsiz ish joyi, zarur texnik sharoit va yangi xodimga yo'l-yo'riq ko'rsata oladigan tajribali mutaxassis zarur bo'lgan. Shu jihatdan ko'zi ojiz yoshning ishga joylashtirilishi faqat ma'muriy qaror emas, balki uning tayyorgarligi va ishlab chiqarish muhiti o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashni talab qilgan murakkab ijtimoiy jarayon edi. Bundan tashqari, ishga joylashish ham ijtimoiy moslashuvning yakunlanganini anglatmagan. Yangi ish joyiga mustaqil qatnash, binoda xavfsiz harakatlanish, jamoa bilan muloqot qilish, ish tartibiga moslashish va kundalik hayotni tashkil etish yangi bosqichdagi ko'nikmalarni talab qilgan. Demak, maktabni tugatish ijtimoiy moslashuvning tugashi emas, balki yangi bosqichning boshlanishi bo'lgan.

Ko'zi ojizlar jamiyati maxsus maktab bilan tashqi ijtimoiy hayot o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida faoliyat ko'rsatgan. Jamiyat maktab-internatlarga moddiy va tashkiliy ko'mak ko'rsatgan, ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqa o'rnatgan, madaniy va sport tadbirlarini tashkil qilishda qatnashgan hamda o'quvchilarning kasbiy yo'nalishlarini aniqlashga yordam bergan. Mehnat ta'limi, musiqa, kitobxonlik va sport sohalarida Jamiyatning ishtiroki ayniqsa sezilarli bo'lgan. Maktab o'quvchiga dastlabki bilim va ko'nikmalarni bergan bo'lsa, Jamiyat uni internatdan tashqaridagi real ijtimoiy va ishlab chiqarish muhitiga olib chiqishda qatnashgan.

1962-yilda o'tkazilgan respublika seminarida maktab direktorlari, Maorif vazirligi vakillari va Ko'zi ojizlar jamiyati rahbarlari darslik bilan ta'minlash, ishlab chiqarish ta'limi, sport tadbirlari va pedagoglarga uslubiy yordam ko'rsatish masalalarini birgalikda muhokama qilganlar. Bu holat ko'zi ojiz bolalar ta'limi faqat maktab yoki Maorif vazirligining vazifasi bo'lmay, turli institutlarning hamkorligini talab qilganini ko'rsatadi. Biroq Jamiyatning imkoniyatlari chegaralangan edi. Uning moddiy yordami maktablarning barcha ehtiyojlarini to'liq qoplashga mo'ljallanmagan. Shu sababli jamoat tashkiloti davlat ta'minotini almashtiruvchi emas, balki uni to'ldiruvchi mexanizm sifatida faoliyat olib borgan.

Ko'zi ojiz o'quvchining savodxonligi uning keyingi ijtimoiy va kasbiy imkoniyatlarini belgilovchi eng muhim omillardan biri edi. Brayl yozuvi orqali mustaqil o'qish va yozish imkoniyatining shakllanishi o'quvchini axborot olish, ta'limni davom ettirish va kasbiy bilimlarni

egallash jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq Brayl yozuvidagi darsliklar va badiiy adabiyotlarning yetishmasligi uzoq vaqt davomida muhim muammo bo'lib qoldi.

Ko'zi ojizlar jamiyati bosmaxonasida Brayl yozuvidagi darsliklar, badiiy va ma'rifiy adabiyotlarni chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan. Ammo nashr jarayoni maktablar tomonidan o'z vaqtida buyurtma berilishi, zarur qog'oz va maxsus uskunalar bilan ta'minlash hamda Brayl yozuvini biladigan mutaxassislarning mavjudligiga bog'liq edi. Brayl kitoblari oddiy bosma kitoblarga nisbatan katta hajmli bo'lib, ko'proq maxsus qog'oz talab qilgan. Bir kitobning bir necha jildga bo'linishi uni nashr qilish, saqlash, maktablarga yetkazish va kutubxonada hisobga olish ishlarini murakkablashtirgan. Darsliklar yetishmagan sharoitda o'qituvchi materialni ko'proq og'zaki tushuntirishga majbur bo'lgan, o'quvchi esa eshitish va xotiraga ko'proq tayangan. Shunday qilib, Brayl adabiyotlarining mavjudligi faqat ta'lim sifati masalasi emas, balki o'quvchining mustaqil axborot olish imkoniyati va intellektual mustaqilligining ham muhim sharti bo'lgan.

Ko'zi ojiz bolalarning jamiyatga integratsiyasida musiqa va boshqa madaniy faoliyat turlari alohida ahamiyat kasb etgan. 1961–1962-o'quv yiliga oid Xiva, Buxoro va Respublika maxsus musiqa maktab-internati o'quv rejalari umumta'lim fanlari bilan birga musiqa, mehnat, jismoniy tarbiya va tuzatish-rivojlantirish mashg'ulotlari yagona ta'lim jarayoniga kiritilganini ko'rsatadi. Musiqa ko'zi ojiz bolalar uchun faqat bo'sh vaqtni tashkil etish vositasi emas, balki professional yo'nalishga aylanish imkoniga ega bo'lgan. Musiqaga qobiliyatli o'quvchilar maxsus tayyorgarlik olib, ijrochilik va boshqa madaniy faoliyat yo'nalishlarida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Badiiy havaskorlik, qo'shiq, musiqa, badiiy o'qish va sahna tadbirlari o'quvchining o'z qobiliyatini jamoa oldida namoyon etishiga sharoit yaratgan. Bunday faoliyat uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, tengdoshlari bilan muloqot qilish va jamiyatda o'zini faol shaxs sifatida his etishida muhim rol o'ynagan. Kitobxonlik ham ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishning muhim vositasi hisoblangan. Brayl yozuvidagi badiiy asarlar orqali o'quvchilar adabiyot va madaniy hayot bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lganlar. Sport mashg'ulotlari esa jismoniy mustaqillik, harakatni muvofiqlashtirish va jamoaviy faoliyat tajribasini rivojlantirgan. Demak, musiqa, kitobxonlik, sport va badiiy tadbirlar ko'zi ojiz bolani ijtimoiy jihatdan passiv yordam oluvchi shaxsdan faol ishtirokchiga aylantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan bo'lgan.

Maxsus maktabning mavjudligi ko'zi ojiz bolaning avtomatik ravishda ta'lim bilan qamrab olinishini anglatmagan. Bolaning maktabga kirishi ko'p jihatdan uning yashash hududi, transport imkoniyatlari, ota-onaning qarori va mahalliy ta'lim organlarining faolligiga bog'liq bo'lgan. Ko'plab maxsus maktablar yirik shaharlarda joylashgani sababli chekka qishloq va tumanlarda yashovchi oilalar farzandini uzoq hududdagi internatga yuborishi kerak edi. Ayrim ota-onalar yosh

bolani oiladan uzoqlashtirishni istamagan. Boshqa hollarda ular maxsus maktab mavjudligi yoki uning imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaganlar.

Mahalliy xalq ta'limi va tibbiyot organlarining bolani aniqlashi, ko'rikdan o'tkazishi, hujjatlarini rasmiylashtirishi va internatga yo'naltirishi ham izchil ishlamagan hollarda bola ta'limdan chetda qolishi mumkin edi. Shu sababli maxsus maktablarda tahsil olgan o'quvchilar sonini hududdagi barcha ko'zi ojiz bolalarning ta'lim bilan qamrab olinish ko'rsatkichi sifatida baholash to'g'ri emas.

Maktabga qabul qilingandan keyin ham oila bilan aloqa muhim bo'lib qolgan. Ota-onaning farzandining yutuqlariga qiziqishi, ta'til davrida uy sharoitida mustaqillik ko'nikmalarini davom ettirishi va keyingi kasb tanlash jarayonida yordam berishi bolaning ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston hududlarida maxsus ta'lim uchun yaratilgan sharoitlar bir xil bo'lmagan. Markaziy shaharlardagi maktablarda pedagoglar, tibbiy xizmat, o'quv vositalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik imkoniyatlari nisbatan kengroq bo'lgan.

Buxoro, Xiva va boshqa hududiy maktablarda esa umumittifoq metodikalarini mahalliy sharoitga moslashtirish zarur edi. Hududning transport tizimi, til muhiti, korxonalar mavjudligi va mahalliy mehnat bozorining tarkibi kasbiy ta'lim natijalariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilgan. Mahalliy ishlab chiqarish korxonalari bilan barqaror aloqa o'rnatilgan maktablarda amaliy mashg'ulotlar va bitiruvchilarni ishga joylashtirish nisbatan osonroq kechgan. Bunday aloqalar mavjud bo'lmagan hududlarda esa mehnat ta'limi maktab ustaxonalari doirasida qolib ketgan. Bu esa tarixiy tajribada ta'limning hududiy jihatdan bir xil standart asosida tashkil etilishi yetarli emasligini ko'rsatadi. Maxsus ta'lim bolaning real yashash, mehnat qilish va jamiyatga qo'shilish muhitini ham hisobga olishi kerak edi. Arxiv materiallari maxsus ta'lim bo'yicha davlat siyosati bilan maktablarning kundalik faoliyati o'rtasida ma'lum darajada tafovut mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Rasmiy hujjatlarda ko'zi ojiz bolalarni ta'lim bilan to'liq qamrab olish, kasbga tayyorlash, mehnat faoliyatiga jalb etish va moddiy sharoitlarni yaxshilash vazifalari ilgari surilgan. Amaliy hisobotlarda esa darsliklar, maxsus jihozlar, kiyim-kechak, isitish, bino, tibbiy xizmat va pedagog kadrlar yetishmasligi qayd etilgan. Shuningdek, maktab, Maorif vazirligi, Ko'zi ojizlar jamiyati va ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasidagi vazifalar har doim ham aniq taqsimlanmagan. Masalan, Brayl darsliklarini kim va qanday mablag' hisobidan tayyorlashi masalasi davlat ta'lim organlari va Ko'zi ojizlar jamiyati o'rtasidagi muhokamalarga sabab bo'lgan.

Bu holat maxsus ta'limning samaradorligi faqat huquqiy va tashkiliy qaror qabul qilish bilan ta'minlanmasligini ko'rsatadi. Qarorlar konkret maktab, pedagog va o'quvchi hayotiga qanday tatbiq etilgani muhimroq ahamiyatga ega bo'lgan. 1925–1990-yillar davomida

O'zbekistonda ko'zi ojiz bolaning ijtimoiy maqomida sezilarli tarixiy o'zgarish yuz berdi. Dastlab u asosan himoya, parvarish va doimiy yordamga muhtoj shaxs sifatida tushunilgan. Maxsus maktablarning tashkil etilishi bilan u ta'lim oluvchi o'quvchiga aylandi.

Mehnat ta'limining rivojlanishi natijasida ko'zi ojiz bola kelajakda hunar egallashi mumkin bo'lgan shaxs sifatida qarala boshlandi. Kasbiy tayyorgarlik, ishlab chiqarish amaliyoti va Ko'zi ojizlar jamiyati faoliyati esa uni mehnat jamoasining potentsial a'zosi sifatida ko'rishga imkon berdi. Musiqa, sport va madaniy faoliyatning rivojlanishi uning jamiyat hayotidagi roli faqat ishlab chiqarish faoliyati bilan chegaralanmasligini ko'rsatdi. 1980-yillarga kelib shaxsiy imkoniyatlarni hisobga olish, mustaqil hayot, rehabilitatsiya va ijtimoiy integratsiyaga oid yondashuvlarning kuchayishi ko'zi ojiz bolalarga nisbatan qarashlarning yanada insonparvarlashganidan dalolat beradi.

Shu tariqa o'rganilgan davrda ko'zi ojiz bola "yordamga muhtoj shaxs" maqomidan "ta'lim olish, mehnat qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega shaxs" maqomiga tomon tarixiy yo'l bosib o'tdi. 1925–1990-yillarda O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalarni ijtimoiy moslashtirish va kasbiy tayyorlash tizimi bosqichma-bosqich shakllandi.

Birinchidan, maxsus maktab-internatlarning tashkil etilishi ko'zi ojiz bolalarni oiladagi nisbiy qaramlik holatidan davlat ta'lim tizimiga jalb etish uchun asos yaratdi. Internatlar savodxonlik, kundalik turmush, mustaqil harakatlanish, tarbiya va mehnat ko'nikmalarini yagona pedagogik jarayonda birlashtirdi.

Ikkinchidan, mehnat va kasbiy ta'lim ko'zi ojiz bolalarni kelajakdagi mustaqil hayotga tayyorlashning muhim vositasiga aylandi. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va hunar mashg'ulotlari o'quvchilarga amaliy ko'nikmalar berdi. Biroq kasblar doirasining torligi, ustaxonalardagi jihozlar yetishmasligi va mahalliy bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi mazkur tizimning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiy integratsiyasi maktab faoliyati bilangina chegaralanmadi. O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq maorifi organlari va oilalar bu jarayonning muhim ishtirokchilari bo'ldi. Ushbu bo'g'inlar o'rtasida hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan hollarda o'quvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuvi samaraliroq kechdi.

To'rtinchidan, Brayl yozuvi va maxsus adabiyotlar ko'zi ojiz o'quvchilarning intellektual mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi vositalardan biri bo'ldi. Biroq Brayl darsliklarining kamligi va ularni nashr etishdagi texnik hamda tashkiliy qiyinchiliklar ta'lim sifatiga ta'sir qildi.

Beshinchidan, musiqa, kitobxonlik, sport va madaniy tadbirlar ko'zi o'g'irlarining qobiliyatlarini rivojlantirish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, o'ziga ishonchini oshirish va jamoatchilik hayotidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qildi.

Oltinchidan, hududiy va oilaviy omillar ta'limga erishish imkoniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Maxsus maktablarning yirik shaharlarda joylashgani, transport muammolari va otalarning farzandini uzoq internatga yuborishga munosabati ayrim bolalarning maxsus ta'limdan chetda qolishiga sabab bo'ldi. Umuman olganda, 1925–1990-yillarda O'zbekistonda ko'zi o'g'irlarining ijtimoiy mavqeyi sezilarli darajada transformatsiyaga uchradi. Ular faqat yordam va parvarishga muhtoj toifa sifatida emas, balki bilim olish, hunar egallash, mehnat qilish, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish va jamiyat hayotida munosib o'rin egallash imkoniyatiga ega shaxslar sifatida tobora kengroq e'tirof etila boshlandi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'zi o'g'irlarining muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasi uchun maxsus maktabning mavjudligi yetarli emas. Ta'lim, oila, ijtimoiy himoya, kasbiy tayyorgarlik, jamoat tashkilotlari va mehnat bozori o'zaro bog'langan yagona tizim sifatida faoliyat yuritgandagina maxsus ta'limning haqiqiy ijtimoiy natijasi yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, ro'yxat 1, 1415-yig'majild. O'zSSR Xalq maorifi xalq komissariati huzuridagi yetim bolalar uylari bo'limi hujjatlari. 1934–1935-yillar. – 149 varaq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, ro'yxat 7, 520-yig'majild. Maxsus maktab-internatlar xodimlarining 1962-yil 9–11-yanvardagi Respublika yig'ilish-seminari materiallari. – 107 varaq.
3. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, ro'yxat 7, 523-yig'majild. Maktab-internatlar va bolalar uylaridagi o'quv-tarbiya ishlariga bag'ishlangan Respublika yig'ilishi materiallari. – 188 varaq.
4. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, ro'yxat 7, 540-yig'majild. 1961–1962-o'quv yili uchun ko'zi o'g'irlar maktab-internatlarining o'quv rejalari. – 22 varaq.
5. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, ro'yxat 7, 541-yig'majild. Bolalar uylari va maxsus maktab-internatlar faoliyatiga oid yillik matnli va statistik hisobotlar. – 96 varaq.
6. O'zbekiston Milliy arxivi. F. 94, ro'yxat 7, 570-yig'majild. Maxsus maktab-internatlar xodimlarining Respublika yig'ilishi materiallari. – Toshkent, 1963. – 104 varaq.
7. Народное образование в Узбекской ССР: сборник статистических материалов. – Ташкент: Узбекистан, 1975; 1980.
8. Коваленко Б.И. Трудовая подготовка учеников школ слепых. – Москва, 1977.

9. Феокистова В.А. История тифлопедагогики. – Москва: Просвещение, 1980. – 216 с.
10. Шадрина Т.А. Специальное образование в СССР: проблемы и перспективы. – Москва: Педагогика, 1987. – 214 с.
11. СССР. Закон от 24 декабря 1958 г. «Об укреплении связи школы с жизнью и о дальнейшем развитии системы народного образования в СССР» // Ведомости Верховного Совета СССР. – 1959. – № 1.
12. Kabulova Z. The Formation and Teaching Methods of Educational Institutions for Visually Impaired Children in Uzbekistan (1925–1990) // Frontline Social Sciences and History Journal. – 2025. – Vol. 5, No. 5. – P. 31–36.